

## BAHO KATEGORIYASI TADQIQI

*N.J.Sulaymanova*<sup>1</sup>

### *Annotatsiya:*

Ushbu maqolada so'zlovchi baholash sub'ekti sifatida til birliklari orqali ob'ektga munosabatini ifodalaydi, baholash natijasida namoyon bo'ladigan bu munosabatlar til tizimining barcha darajalariga tegishli bo'lgan birliklar orqali namoyon bo'ladi. sub'ektni ob'ektga, narsa va hodisalarning baholash ob'ekti bo'lgan xususiyatlariga nisbatan mantiqiy kuzatish natijasida sifatlar faqat shaxsning bilish faoliyatida ishtirok etadigan ob'ektlarda faollashishi ta'kidlanadi. shaxs va ma'lum bir ijtimoiy ahamiyatga ega.

*Kalit so'zlar:* fikrlash, baholash kategoriyasi, kategorik belgilar, ob'ektiv voqelik, ontologik, baholash sub'ekti, antropotsentrizm, kommunikativ, baholash pragmatikligi, emotsionallik va reprezentativlik.

*doi:* <https://doi.org/10.2024/4q94p441>

---

Baho kategoriyasi tadqiqiga katta kuch sarflagan N.D.Arutyunova baholash predmetlarining obyektivlik xususiyatiga ahamiyat berib, ularni moddiy va nomoddiy turlarga ajratadi. Olima nomoddiy obyektlar qatoriga voqelik predmetlari o'rtasidagi munosabatlarni namoyon qiluvchi alohida unsurlardan tashqari, baholashga xos xususiyatlar, harakatlar, jarayonlar va hodisalar kiradi. Shuningdek, N.D.Arutyunova baholashning ikki turini, ya'ni jarayonlar bahosi va faktlar bahosini farqlaydi. Ularning birinchisi ichki va ikkinchisi tashqi tasnif bilan bog'liq [Арутюнова 1985, 13].

Ye.A.Chernyavskaya baholanayotgan obyektlarni inson, artefakt, tashqi olam ko'rinishlariga ega bo'lishini qayd etadi. Bunda inson bilan bog'liq va uni yaxlit aks ettiradigan obyektlar birinchi guruhga kiritilsa, inson faoliyati mahsuli hisoblangan obyektlar ikkinchi guruhga va insonga tobe bo'lmagan obyektlar uchinchi guruhga mansub hisoblanadi [Чернявская 2001, 25].

Unutmaslik lozimki, baholash ob'ekti bo'lgan narsa va hodisalarning xususiyatlari va sifatleri insonning bilish faoliyatiga jalb qilinadigan hamda ma'lum ijtimoiy qiymatga ega bo'lgan obyektlardagina faollashadi [Вендина 1998, 9]. So'zlovchi baho sub'ekti sifatida lisoniy birliklar vositasida ob'ekt haqidagi munosabatini ifodalaydi. Baho natijasida namoyon bo'luvchi ushbu munosabatlar sub'ektning ob'ektga nisbatan mantiqiy mushohadasi natijasi sifatida til tizimining barcha sathlariga tegishli birliklar vositasida voqelanadi. V.V.Lopatin baholashning funksional-grammatik vositalari faollashuvi olti yo'nalishda kechishini qayd etadi [Лопатин 1992, 71].

- 1)Haqqoniylik-sohtalik, ishonch-ishonchsizlikning namoyon bo'lishi;
- 2)Aniqlik-noaniqlik, nutq sub'ektiga biror narsaning ma'lumligi-noma'lumligi;
- 3)intensivlik yoki belgi namoyon bo'lishi darajasi;
- 4)sub'ektning manfaatdorligi, befarqligi; ahamiyatli yoki ahamiyatsiz tomonga urg'u berish;
- 5)emotsionallikni ifodalash [qayg'u, hayrat, norozilik, xafalik, kinoya, g'azab];
- 6)suhbatdoshlarning muloqot paytidagi mavqesi baholanishi bilan bog'liq jarayonlar [rasmiylik, xushmuomilalik, erkinlik, yuzakilik, marhamatlilik, istak bildirish kabilar].

---

<sup>1</sup> N.J.Sulaymanova, SamDCHTI, Ingliz tili fakulteti DSc., dots.

Baholash faoliyatining amalga oshishida ma'lum ko'rinishdagi tafakkur harakatlari bajariladi: 1) baho obyektini tanlash; 2) baho alomatini tanlash; 3) baho predmetini namuna bilan taqqoslash; 4) baholanayotgan obyektga alomat ma'nosini berish; 5) baholash harakati ijrosi haqida qaror qabul qilish [Максимова 1998, 12].

Ko'rinadiki, baho hodisasining tabiatini ochib berish, tavsiflash va tahrirlashda subyekt va obyekt munosabatlari tasnifiga asoslanadi. Ushbu munosabatning murakkab tuzilishga egaligi va ko'pqirraligi barchaga ma'lum.

Ba'zi tadqiqotchilar baholashni funksional-semantik nazariya nuqtayi nazaridan o'rganishni ma'qullaydilar hamda maydon tarkibida umumiy va xususiy turlarni ajratadilar. Umumiy baho baholash funksional-semantik maydonining markazini egallab, xususiylari esa sarhadlardan joy oladi. Xususiy bahoning turlari ko'p bo'lib, ularning oralig'ida aniq bir chegara chizig'ini tortish mushkuldir. Bundan tashqari, bir maydon unsurlarining boshqasiga ko'chib o'tish holatlari ham kuzatiladi. T.I.Vendinaning semantik maydon tushunchasiga bergan izohi baho funksional maydoniga to'lig'icha mos keladi: "Semantik maydon – ma'no umumiyliги asosida birlashgan va ifodalanadigan hodisalarning predmetli, tushunchaviy va vazifaviy muqobilliklarini namoyon etadigan lisoniy birliklar jamlanmasidir. Semantik maydonga kiruvchi so'zlar uchun umumiy semantik alomat xos bo'lib, aynan shu umumiylik asosida mazkur maydon shakllanadi. Semantik maydon murakkab strukturaga ega va uning tarkibida markaz (unga ko'p qo'llaniladigan birliklar kiradi) va sarhad (chekka nuqta) farqlanadi, ammo ular o'rtasidagi chegara aniq emas. Shu bois, bir maydon elementlari (ayniqsa chekka hududdagilari) boshqa maydonga kirishi mumkin" [Вендина 2001, 154].

Baholash faoliyatida baho subyekti va obyekt o'rtasidagi munosabatning qaysi jihatiga alohida e'tibor qaratilishiga binoan bahoning ratsional va emotsional ko'rinishlari shakllanadi. Ratsional va emotsional baho bir xilda inson ongi faoliyatining mahsuli bo'lsa-da, biroq ularning birinchisida olamning qiymatli manzarasi aks topsa, emotsional baho shaxsning ichki dunyosi, his-tuyg'ulari bilan bog'lanadi. Emotsiya ijobiy yoki salbiy his-tuyg'ularni tavsiflash orqali yuzaga keladi. Ratsionallik so'zlovchining kognitiv faoliyati natijasidir va subyektning atrof-muhit haqidagi mental bilimni aks ettiradi.

Baholash faoliyati markazida subyektivlik turishini ta'kidlovchi tadqiqotchilarning nazdida, baho so'zlovchi shaxsning subyektiv munosabatiga qarab belgilanadi. Obyektivlikni bahoning asosiy kategorial belgisi sifatida ta'riflaydigan olimlarning fikricha, emotsiya narsa-predmetlar holati haqidagi oshkora yoki g'oyibona mushohada natijasida yuzaga kelib, bevosita voqelikka bog'liq, u haqidagi tasavvur o'zgarsa, his-tuyg'uni ifodalovchi baho ham o'zgaradi. Til tizimida so'z yuritilayotgan baho turlarini farqlash uchun xizmat qiladigan vositalar mavjud.

Compare:

Shoirlar [Abdulla Avloniyga] "buyuk mozor" bo'lib ko'ringan yurt kimlargadir "bog'i jinon", ya'ni jannat gulshanidir. Bu yurt hamma uchun "alamzor" emas, uning farog'atini "hukamo" ko'radi. Uning "g'uncha"larini "hukam" "teradi". "Fuqaro" esa gulshan gullarining tikani bilan birga xor, oyoq ostida – "xoki mazlatda" bu "manzar" shoirlar "mashhar azobini" beradi. Shoir unga nazar tashlaganida "bag'ri kabob" bo'ladi [Tohir Malik. Yozuvchining baxti va baxtsizligi].

Baho darajasini oshirishning o'ziga xos lisoniy va nolisoniy usul va vositalari mavjud. Ratsionallik baholovchi fikr va shu baho xarakterini inobatga oladigan ifoda uslubini talab qiladi. Shunday vositalardan biri aksiologik predikatdir.

Compare:

"Bu yaxshi va yaxshi deb hisoblayman". Bahoning oqilonaligi fikr predmeti qo'shilishi hisobidan kuchayadi, emotsionallik darajasi ekspressiv sifatlarda yordamida oshiriladi: "U chiroyli va aqlli kelin" U qanday chiroyli va aqlli kelin (emotsionallik darajasining o'sishi).

Nutqda baholash maqsadida qo'llanilgan vositalarning ekspressivlik xususiyatiga ega bo'lishi adresatga ta'sirni kuchaytiradi, albatta. Oqibatda, ekspressivlik bahoning xarakterli belgisini tashkil qiladi. Masalan, Uyat emasmi? –tanbeh bo'lsa, Siz ajoyib kishisiz! maqtoiv mazmuniga ega. Adresatga xos bo'lgan ijobiy sifatlar qayd etilgan vaziyatda ijobiy bahodan tashqari xushomadgo'ylik, laganbardorlik ma'nolari ham sezilib turadi. Qiyoslang:

Carol: a mixture, I expect. Well, Mr. Beavers, you mustn't. You were very nice about the charade – and very good in it too. You must come and play charades again (Priestley. Dangerous Corner).

-Bu qanday chopon? – deb so'radi bek.

-Muborak bo'lsin, dedim-ku.

-Nima muborak bo'lsin?

-Sizga iffatlik va sevimlik rafiq bilan qutidordek qayin ota, Hasanaliga kelin muborak bo'lsin (Abdulla Qodiriy. O'tkan kunlar).

Aytish joizki, ijobiy baholash harakati jarayonida obyektning xislatlarini ma'qullash ma'nosi aniqlashadi. Ushbu holatda so'zlovchining propozitsiya muhimligiga ishonchi sezilib turadi. Salbiy baho yuzaga kelishida esa ma'qullamaslik, norozilik, xatolikka ishora namoyon bo'ladi. Emotsional baho ifodalanayotgan propozitsiya haqqoniyligiga subyekt ishonchining tagma'noli ifodasidir.

Baholash hodisasini inson faoliyatining turli sohalari bilan bog'liq holda izohlash uchun uning sababiga ham e'tibor qaratish lozim bo'ladi. Baholash obyekt va sababi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqa mavjud emasligini ta'kidlagan N.D.Arutyunova ularning inson ongida doimiy empirik o'zaro munosabatda bo'lishini qayd etadi [Арутюнова 1988, 56]. Baholash harakatining bu yo'sindagi talqini kognitiv yondashuvga xosdir. Zotan, ongda ma'lum bir obyekt haqidagi tasavvurlar yig'indisidan iborat kognitiv tuzilmalar shakllanadi va ular vositasida baholanish sabablari namoyon bo'ladi.

Baholash obyektining o'ziga xosligi, uning nafaqat real voqelikdagi predmetini ifodalashi, balki vaziyat, xatti-harakatlar, holatlarni ham bildiradi olishidir. Baholanishi mumkin bo'lgan har bir obyekt turli tarkibli xususiyatlar to'plamiga ega. Muloqot konteksti va baholashning uslubiga nisbatan obyekt bir holatda ijobiy baho olsa, boshqasida esa salbiy xususiyatga urg'u berilishi mumkin. Subyekt va obyekt orasida ma'lum munosabatlarning yuzaga kelishi bahoning tabiatini shakllantirishda ishtirok etadi [Вольф 1985, 9]. Bularning barchasi baho kategoriyasining lingvokulturologiya va yangidan shakllanayotgan lingvistik aksiologiya sohalari tadqiq obyektini sifatida qarashga undaydi.

Hozirgi paytda navqironlik davrini o'tayotgan aksiologik tilshunoslik, bir tomondan antropotsentrizm bilan bevosita aloqada bo'lsa ikkinchi tomondan, lingvomadaniy paradigmaning shakllanishi bilan bog'liq. Aksiologik tilshunoslik sohasi rivojida insonning tabiiy va ijtimoiy voqelik hamda o'zining tafakkur faoliyatiga nisbatan munosabatini aks ettiruvchi qadriyat kategoriyasi yetakchi vazifani o'tagani ma'lum. Ushbu sohada til qadriyatlar haqidagi axborot manbasi sifatida qaraladi hamda shu yo'sinda qadriyat va baho asosiy tadqiq predmetiga aylanadi. Bunda olam milliy manzarasidan o'rin olgan madaniy hodisalar ifodalanishida uzatilayotgan axborotning baho bilan bog'liq qismi yetakchi o'ringa chiqadi [Радбиль 2017].

L.N.Bayramova qayd etganidek, aksiologik paradigm doirasida bah ova qadriyat kategoriyalari lisoniy konseptuallashuvining umumiy va idioetnik jihatlari aniqlanadi [Л.Н.Байрамова 2009, 108].

Xuddi shu jihatlarni namoyon qiluvchi holatlarni belgilash bizning tadqiqotimizning asosiy vazifalaridan biridir. Zero, voqelikning idroki murakkab, ko'p bosqichli jarayon sifatida bir xilda kechmaydi. Bu jarayonda konseptuallashuvning universal va milliy madaniy xususiyatlari o'zaro uyg'unlashadi.

Boz ustiga, idrok harakatlari inson tomonidan bajarilishini unutmazlik lozim. Voqelikni baholayotgan shaxs jamoaga, milliy madaniyatga xos qadriyatlardan tashqari,

o'zining shaxsiy qadriyatlar tizimiga ham tayanadi. Lekin har ikkala holatda ham bahoning lisoniy ko'rinish olishi muhitida olam manzarasining aksiologik qatlami zohirlanadi.

Demak, lingvoaksiologik yo'nalishdagi tadqiqotda qadriyat-tushuncha-til birligi bog'lami tahlili muhim ahamiyat kasb etadi. Baholash harakati, uning turli vaziyatlarda namoyon bo'lishi va pragmatikmaqomini o'rganishda biz albattatil tizimiga, uning birliklarini faollashtiruvchi omillarga murojaat qilamiz.

Asosida voqelikning lisoniy konseptuallashuvi bilan bog'liq tadqiqotlarda olam manzarasining baholi tasvirini hosil qiladigan omillarga alohida e'tibor qaratiladi. V.I.Karasik, olam lisoniy manzarasi doirasida o'ziga xos baho qatlami mavjudligini tavsiflayotib, ushbu qatlam umuminsoniy va milliy madaniyatga xos qismlardan iboratligini qayd etadi [B.И.Карасик 2004]. Oxirgi qism obyektning turlicha nomlanishidan boshlanib, ularning turlicha tasnifiy belgilaridan tashkil topadi. Eng muhimi olamning baholi manzarasida ma'lum madaniyat uchun ahamiyatli bo'lgan ma'no-mazmun va qadriyatlar yetakchilik qiladi. Mazkur yetakchi belgilar til tizimi zahirasida to'planadi va saqlanadi.

Lingvoaksiologiya yondashuvi ko'lamida olib boriladigan tadqiqotda quyidagi muammolar muhokamasi dolzarb hisoblanadi:

1) Baho kategoriyasini tilshunoslik, falsafa, etika, mantiq, estetika fanlariga xos tahlil tamoyillari integrallashuvida o'rganish;

2) Baholi ma'no-mazmun va ularni voqelantiruvchi vositalar majmuasini tasvirlovchi baho hodisasini umumiy nazariyasini talqin qilish;

3) Voqelikni baholash bilan bog'liq holatlarning idioetnik ko'rsatkichlarini aniqlash;

4) Baho kategoriyasining turli diskurslarda ifodalanishi bilan bog'liq masalalarni muhokama qilish;

5) Shaxslararo muloqot vaziyatlarida turli pragmatik mo'ljalga ega bo'lgan nutqiy aktlar ijobiy yoki salbiy baho ifodalanishini ta'minlovchi omillarni diskursiv- pragmatic nuqtayinazardan tavsiflash.

Shunday qilib, lingvoaksiologiya yo'nalishida bajariladigan tadqiqotlarning metodologik asosini antropotsentrizm tashkil qilishiga ishonish kerak. Mashhur faylasuf-tilshunos V.Fon Gumboldtning izdoshlari tilshunoslikning "tilde aksetuvchiinson" haqidagi fan sifatida ta'riflamodalar (Пименова 2011, 10).

Tilning antropotsentrik tabiatini tavsiflagan N.D.Arutyunovanning ta'biricha, inson tilda o'z qiyofasini, ichki tuyg'ulari, his-hayajoni, aqliy qobiliyati, moddiy va nomoddiy olamga munosabati, shuningdek, jamoaga boshqa shaxsga nisbatan munosabatini namoyon qiladi [Н.Д.Арутюнова 1999, 3].

Shu asnoda, mazkur tadqiqotning metodologik tayanch nuqtasi sifatida antropotsentrizm yo'nalishiga xos g'oya va tamoyillarni tanlayotib, ushbu yo'nalishning asosiy masalalari yoritilgan N.D.Arutyunova, E.S.Kubryakova, V.A.Maslova, S.V.Grinyov-Grinevich, N.F.Aliferenko kabi rus olimlari hamda D.U.Ashurova, Sh.S.Safarov, F.Xudoyberganova, N.M.Djusupov, M.R.Galiyeva, N.Z.Normurodova kabi o'zbek tilshunoslarining asarlarida bildirilgan fikr- mulohazalarga tayanishga harakat qilamiz.

Tanlangan ilmiy paradigma, metodologik asos o'rganilayotgan obyektibilishusuli, ya'ni tadqiq metodini belgilaydi. Tilshunoslikning ilmiy izlanishlar zamonaviy usullarini yoritish maqsadini ko'zlagan I.V.Arnold aytganidek, "metod – bu o'rganilayotgan materialga bo'lgan yondashuv, uning tizimlashtirilishi va nazariy baholanishidir" [И.В.Арнольд 1991, 9]. Maxsus adabiyotlarda tilni o'rganishning tavsifiy, qiyosiy-tarixiy, chog'ishtirma, struktur, stilistik, miqdoriy, component tahlili kabi usullari sanab o'tiladi. Bizningcha, qayd etilgan metodlardan har bir muayyan kuchli va zaif tomonlariga ega. Bundan tashqari, alohida olingan bir metod tatbiqida o'rganilayotgan obyektning turfa hislatlari haqidagi dalillarni qamrab olishga o'zlik qilishi mumkin. Shu sababli turli xil metodlardan o'z o'rnida foydalanish ma'qul ko'rinadi. Biz ham baho hodisasining lisoniy voqelanishi bilan bog'liq

muammolar tahlili jarayonida chog'ishtirma va konseptual tavsif metodlar integratsiyasini maqsadga muvofiq deb topdik.

Aytish joizki, metodlarning bu yo'sindagi integratsiyasi chog'ishtirma tilshunoslik sohasi boshqacha mundarijaga ega bo'lishiga turtki beradi. Konseptual va tavsifiy metodlarning uyg'unlashuvi oqibatida an'anaviy tilsunoslikka xos bo'lgan "shakldan – mazmunga" ko'rinishidagi qiyosiy-tipologik amallar o'rnini "mazmundan-shaklga" yo'nalishda kechadigan chog'ishtirish amaliyoti egallaydi. Bunday yondashuvda odatda lisoniy tafakkur faoliyatining lingvomadaniy qatlamini tashkil qiluvchi vositalarning chog'ishtirma tavsifi yetakchilik qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- [1]. Арнольд И.В. Импликация как прием построения текста и предмет филологического изучения // Вопросы языкознания, 1982. - № 4. – С. 83-91 с.
- [2]. Арутюнова Н.Д. Типы языковых значений. Оценка. Событие. Факт. – М.: Наука, 1988. – 339 с.
- [3]. Арутюнова Н.Д. Об объекте общей оценки (в лингвистических исследованиях) // Вопросы языкознания, 1985. № 3. – С. 13-24.
- [4]. Байрамова Л.Н. Родина и смерть в аксиологической парадигме // Филологические науки, 2009. № 3. – С. 101-110.
- [5]. Вендина Т.И. Русская языковая картина мира сквозь призму словообразования (макрокосм). – М.: Индрих, 1998. – 293 с.
- [6]. Вендина Т.И. Введение в языкознание. – М.: Высшая школа, 2001. – 154 с.
- [7]. Вольф Е.М. Оценочное значение и соотношение признаков “хорошо / плохо” // Вопросы языкознания, 1986. -№ 5. – С. 98-106.
- [8]. Карасик В.И. Аксиологическая лингвистика: концепты и дискурс // Германистика в России. Традиции и перспективы. – Новосибирск: Изд-во НГУ, 2004. – С. 28-32.
- [9]. Максимова Е.П. Семантические и прагматические свойства высказываний оценки. Автореф. дисс.... канд. филол. наук. – Тверь, 1998. – 26 с.
- [10]. Пименова М.В. Концептуальные исследования. – М.: Флинта, 2011. – 176 с.
- [11]. Радбиль Т.Б. Язык и мир: парадоксы и взаимоотношения. – М.: Издательский дом ЯСК, 2017. – 592 с.
- [12]. Чернявская Е.А. Оценка и оценочность в языке и художественной речи (на материале поэтического, прозаического и эпистолярного наследия А.С. Пушкина). Автореф. дисс.... канд. филол. наук. – Брянск, 2001. – 25 с.